

Journal of Social Research in Uzbekistan**ANALYSIS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO THE NATIONAL ECONOMY****Shakhrukh Khudoyqulov***Master's student**Higher School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Global competition in the world, Attracting foreign capital to the economy of Uzbekistan, Attracting foreign capital to the economy of countries, Assessment of the investment climate in the country, Global attractiveness, Attracting foreign investments and their macroeconomic indicators of the national economy, Index of Economic Freedom.

Received: 19.05.25**Accepted:** 21.05.25**Published:** 23.05.25

Abstract: In the context of intensifying global competition in the world, the analysis of the attraction of fixed capital with high efficiency among countries and the acceleration of the process of attracting foreign investments to the Republic of Uzbekistan, primarily the investment environment created for them, are of primary importance. Conducting an econometric analysis of the attraction of foreign investments and their impact on the macroeconomic indicators of the national economy, primarily on the country's GDP. Attracting foreign, including direct, investments to the national economy and assessing their economic efficiency

MILLIY IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH TAHLILI**Shahruh Xudoyqulov***Magistratura talabasi**Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Jahonda global raqobati, Chet el kapitali O'zbekistonning iqtisodiyotiga jalb etishi, mamlakatlar iqtisodiyotiga xorijiy kapitalining jalb etish, Mamlakatdagi investitsion muhitni baholash, Global jozibadorlik, Xorijiy investitsiyalarni jalb etishilishini va ularning milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, Iqtisodiy erkinlik indeksi.

Annotatsiya: Jahonda global raqobatning keskinlashuvi sharoitida mamlakatlar o'rtasida samaradorlik jihatidan yuqori qiymatga ega bo'lgan asosiy kapitalni jalb etishni ta'hlil qiliش hamda O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonining jadalligi, birinchi navbatda, ular uchun yaratilgan investitsion muhit birlamchi o'rin egallaydi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishilishini va ularning milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, avvalambor mamlakat YAIMga,

ta'sirini ekonometrik tahlili amalga oshirishini ta'lim kili bori. Milliy iqtisodiyotga xorijiy, jumladan to'g'ridan-to'g'ri, investitsiyalar jalb etish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash.

АНАЛИЗ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В НАЦИОНАЛЬНУЮ ЭКОНОМИКУ

Шахрух Худойкулов

студент магистратуры

Высшая школа бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Глобальная конкуренция в мире, Привлечение иностранного капитала в экономику Узбекистана, Привлечение иностранного капитала в экономики стран, Оценка инвестиционного климата в стране, Глобальная привлекательность, Привлечение иностранных инвестиций и их макроэкономические показатели национальной экономики, Индекс экономической свободы.	Аннотация: В условиях обострения глобальной конкуренции в мире первостепенное значение приобретает анализ привлечения основного капитала с высокой эффективностью между странами и ускорение процесса привлечения иностранных инвестиций в Республику Узбекистан, в первую очередь создаваемая для них инвестиционная среда. Проведение эконометрического анализа привлечения иностранных инвестиций и их влияния на макроэкономические показатели национальной экономики, в первую очередь на ВВП страны. Привлечение иностранных, в том числе прямых, инвестиций в национальную экономику и оценка их экономической эффективности.
--	---

Jahonda global raqobatning keskinlashuvi sharoitida mamlakatlar o'rtasida samaradorlik jihatidan yuqori qiymatga ega bo'lgan asosiy kapitalni jalb etish bo'yicha kurash kuchayib bormoqda. Jumladan, "Chet el kapitali O'zbekistonning iqtisodiyotiga jalb etish va ularni yo'naltirish asosiy maqsadlardan biridir. Chet el kapitalining To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qila olish qobiliyati har qanday mamlakatning hududlar imkoniyati tufayli yuzaga kelgan. Ushbu holat mamlakatlar iqtisodiyotiga xorijiy kapitalining jalb etish yo'nalishlarini takomillashtirish zarurligini namoyon etadi. 2021 yilning 6 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimda qayta saylangan mamlakat rahbari tomonidan kelgusi besh yil uchun eng asosiy ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ilgari surildi.

"2017-2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada

keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmogʻi ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi”[1];

Oʻzbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonining jadalligi, birinchi navbatda, ular uchun yaratilgan investitsion muhit birlamchi oʻrin egallaydi. Mamlakatdagi investitsion muhitni baholashga qaratilgan bir qator yondashuvlar mavjud boʻlib, ularning barchasi ham oʻz ahamiyatiga ega. Xalqaro darajada turli tashkilotlar tomonidan mamlakat investitsion muhitiga baho berishda turli indeks va reytinglar tizimidan foydalaniladi. Jumladan, Jahon Banki tomonidan Biznes yuritish (Doing Business) indeksi (2021 yilgacha eʼlon qilingan), The European House-Ambrosetti konsalting agentligi tomonidan yuritiladigan Global jozibadorlik (Global Attractiveness Index) indeksi Forbes ning Biznesni yuritish uchun eng yaxshi mamlakatlar, Bloomberg kompaniyasi tomonidan yuritiladigan Mamlakatda biznesni yuritish qulayligi (Rankings Bloomberg) reytingi, Heritage Foundation tomonidan yuritiladigan Iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of Economic Freedom), Institute of Management Development tomonidan yuritiladigan Global raqobatbardoshlik reytingi (IMD World Competitiveness Ranking) shular jumlasidandir.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishilishini va ularning milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy koʻrsatkichlari, avvalambor mamlakat YAIMga, taʼsirini ekonometrik tahlili amalga oshirishda iqtisod-olimlar tomonidan bir qator omillar oʻzgaruvchi sifatida qabul qilingan. Bu oʻzgaruvchilar sifatida YAIM miqdori va uning oʻzgarishi dinamikasi, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, iqtisodiyotning ochiqlik darajasi, mamlakatda korrupsiya darajasi, nepotizm, ishchi kuchining miqdor va sifat koʻrsatkichlari, mulkiy huquqlarning kafolati, yetakchi reyting agentliklari hisobotlari, iqtisodiyot tarmoqlari va resurslardan foydalana olish darajasi va boshqa qator koʻrsatkichlar tanlab olingan.

Oʻzbekistonda mazkur sohada olib borilgan tadqiqotlar tahlili koʻrsatishicha, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar oqimiga taʼsir qiluvchi omillar keng doirasi oʻrganilgan holda, kelgusi davr prognozlarini ishlab chiqishda asosan iqtisodiy koʻrsatkichlar, jumladan, YAIM va uning oʻsishi dinamikasi, investitsiya faolligi, ishlab chiqarish salohiyati, savdo balansi, tabiiy resurs salohiyati, isteʼmol salohiyati, mehnat salohiyati, infratuzilma salohiyati kabilar kiritilgan holda institutsional jihatlar omil sifatida eʼtibordan chetda qoldirilgan. Jumladan, B.Valiyev Oʻzbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmlarini tahlil etishga doir tadqiqotida “yalpi hududiy mahsulot oʻsish surʼatlariga asosiy kapitalga investitsiyalar oʻsish surʼatlari taʼsiri panel maʼlumotlar bazasiga asoslangan regressiya funksiyalari orqali baholagan”[2]; N.Amanova investitsion faoliyatni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish doirasida olib borgan tadqiqotida YAIMning oʻsish surʼati, xorijiy investitsiyalarning oʻsish surʼati, iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat tarmoqlarining oʻsish surʼati, inflyatsiya darajasi [3]; D.Ruzmetov kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda xorijiy

investitsiyalarni jalb qilishni ekonometrik modellashtirish doirasidagi tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari soni, kichik biznes subyektlari soni, kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, mehnat resurslari soni[4]; I.Kadirova milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning rolini oshirish masalalari (erkin iqtisodiy zonalar misolida)ga qaratilgan tadqiqotda YAIM deflyatori, inflyatsiya darajasi, narx indeksi, kichik biznesning ishlab chiqarish hajmi va mamlakat savdo balansi [5]; ko'rsatkichlaridan mamlakatga kiritilishi mumkin bo'lgan xorijiy investitsiyalarning hajmini prognoz qilishga qaratilgan ekonometrik modellarni ishlab chiqishda omil sifatida foydalangan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlardan farqli ravishda faqat institutsional ko'rsatkichlarga tayangan holda investitsiyalash jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga bag'ishlangan tadqiqot ishlari ham amalga oshirilgan. Jumladan, S.Abduraximova O'zbekistonda investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishni takomillashtirish doirasidagi tadqiqot ishida natijaviy ko'rsatkich investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishga soliq-budjet, valyuta, narxni shakllantirish, talab va taklif, ish bilan bandlik siyosatlar ta'siri tahlil etilgan[6]; Bizning fikrimizcha, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining keyingi yillar uchun prognozini ishlab chiqishda milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bilan birgalikda institutsional jihatlarni ham omil sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiq. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining qisqa va uzoq muddatli prognozini ishlab chiqishda institutsional omillardan foydalanish maqsadga muvofiq. Tadqiqot ishimizda O'zbekistondagi institutsional omillarga baho berishda Heritage Foundation tomonidan yuritiladigan Iqtisodiy erkinlik indeksi ko'rsatkichlaridan foydalanamiz.

Iqtisodiy erkinlik indeksi Heritage Foundation bilan The Wall Street Journal hamkorligida 1995 yildan buyon yuritilib, xozirgi kunda 190 ga yaqin mamlakatlari ushbu reytingga kiritilgan. "Reytingda mamlakatda biznesni yuritishda jarayonlar: ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlariga davlatning aralashuvi yoki to'sqinlik qilmasligi, erkinliklarning himoya qilishi va ta'minlanishi aks etgan"[7];

Masalan, "Angren" MIZ ma'muriy kengashi tomonidan 23 ta loyiha ma'qullangan bo'lib, ularning qiymati qariyb 458 million AQSH dollarini tashkil qiladi. "Jizzax" MIZda bugungi kunga qadar 51 million AQSH dollarilik (uning yarmidan ko'pi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar) 13 ta loyiha amalga oshirildi. Joriy yilda ularning sonini 11 taga ko'paytirish va buning uchun 156 million AQSH dollarilik investitsiya jalb etish mo'ljallangan [8];

Xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatda mehnat unumdorligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda ushbu masala bo'yicha turli fikrlar paydo bo'lgan. Ayrim tadqiqotlar ko'rsatishicha, xorijiy investitsiyalar mahalliy firmalarning holatiga salbiy ta'sir

ko'rsatmoqda. Xususan, mahalliy firmalar yirik kapital qo'yilmalarsiz ham mehnat unumdorligini oshirishga erishishlari mumkin, buning samarasi esa uzoq istiqbolda ko'rinadi. Xorijiy investitsiyalar yuqori malakali ishchi kuchiga talabni oshiradi, aholi farovonligi darajasini ko'taradi, chunki TMKlar mahalliy firmalarga qaraganda yuqoriroq maosh to'laydi. Biroq shunga yarasha adolatsiz raqobat tufayli mahalliy firmalarning foydasi ham kamayadi. TMK oraliq mahsulotni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, chunki unga talabni yuzaga keltiradi. Mahalliy firmalar TMKlar tomonidan yaratilayotgan talabga asosan qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga majburdirlar. Bu rivojlanish darajasi past mamlakatlarga ko'proq xos xususiyat bo'lib, ular o'z sanoat ishlab chiqarish quvvatlariga deyarli ega emas. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'siri bilan birga, uning salbiy samaralari ham mavjud. Ulardan biri – ichki kapital qo'yilmalarning xorijiy investitsiyalar va mahalliy firmalarning yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lgan TMKlar tomonidan siqib chiqarilishi hisoblanadi. Biroq ushbu samara doimiy emas, chunki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mehnat unumdorligining ortishi hamda olib kirilgan yuqori texnologiyalardan tashqi samara hisobiga milliy firmalar ekspansiyasiga yordam berishi mumkin. Ma'lumotlar ko'rsatishicha, TTXIning netto oqimini kiritilgan har bir dollarga nisbatan o'sib borishi qabul qiluvchi mamlakat umumiy kapitalining bir dollardan ko'proq hajmda o'sishiga olib keladi (o'zgarishlar 1,5 – 2,3 marta doirasida). Shunday qilib, TTXI qabul qiluvchi mamlakat umumiy kapitalining o'sishi asosida iqtisodiy o'sishga ko'maklashadi [9] ;

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, milliy iqtisodiyotga xorijiy, jumladan to'g'ridan-to'g'ri, investitsiyalar jalb etish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash juda serqirra va murakkab jarayon bo'lib, uning natijasining aniklik darajasini oshirish uchun bu boradagi bajarilishi lozim bo'lgan taomillarning mantiqiy ketma-ketligi, ya'ni algoritmini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoni, 7-fevral, 2017-y.
- 2.Valiyev B.B. O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi. Iqtisodiyot fanlari doktori DSc dissertatsiyasi avtoreferati. T. 2021. 25-27 b.
3. Amanova N.U. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi avtoreferati. T. 2023. 19-21 b.
4. Ruzmetov D.I. Kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ekonometrik modellari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Urganch. 2023. 14-15 b.

5. Kadirova I.B. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning rolini oshirish masalalari (erkin iqtisodiy zonalar misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi avtoreferati. T. 2023. 23-24 b.

6. Abduraximova S.A. O'zbekistonda investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori DSc dissertatsiyasi avtoreferati. T. 2022. 16-19 b.

7. www.heritage.org/index/visualize

8. www.mfa.uz - O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi sayti.

9. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, N.G.Muminov. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. / i.f.d., professor A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – T.: «Moliya», 2010, 9 bet.